



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 3 2024-YIL 25-MART



## YANGILANISH, YASHARISH BAYRAMI MUBORAK BO'LSIN!

Ona diyorimizga barchamiz orziqib kutgan – Navro‘zi olam kirib keldi. Navro‘z – yangi kun demakdir. Uyg‘onish va yangilanish ayyomi – Navro‘z shukuhidan dillarimiz yayramoqda.

Shunday tarovatli kunlarda barchangizni, ko‘p millatli xalqimizni Navro‘zi olam bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Navro‘zni yurtimizga farovonlik, tinchlik, omonlik elchisi sifatida tashrif buyurayotgan qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat farishtasiga qiyoslash mumkin.

Aytish joizki, Navro‘z o‘zaro qadr-qimmat, xayru saxovat, mehr-oqibat timsolidir. Ezgulik, saxovatga yo‘g‘rilgan uyg‘onish, yasharish ayyomi bu yil dillarimizni yana quvonchu shodlikka chulg‘adi.

Fursatdan foydalanib hurmatli o‘qituvchi-professorlar

va talaba-yoshlarni go‘zal, tarovatli Navro‘z ayyomi bilan chin dildan qutlayman. Sizlarga avvalo sog‘lik-omonlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat tilayman. Ilmiy izlanishlaringiz va o‘qishlaringizda omad yor bo‘lsin. Navro‘zi olamning hayotbaxsh nur-ziyosi qalbingizni poklab, nurafshon aylasin.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da barchangizga Vatanimiz ravnaqi yo‘lidagi mas‘uliyatlari va sharafli faoliyattingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman! Har bir xonadonga yangidan yangi rejalar, maqsadlarning qaror topishidek tole’ nasib etsin. Navro‘z shukuh doimo qalblarimizni quvonchlarga to‘ldirib, yurtimizda mangu qolsin!

Sh.BOYMURODOV,  
TTA o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, professor

Hikmat



Xush kelibsan o‘lkamizga Navro‘zi olam.

Hikmat



## BELARUS TIBBIYOT MUASSASALARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI KENGAYMOQDA



TTA Gomel davlat tibbiyot universiteti bilan yangi ikki diplomli dasturni yo'nga qo'ymoqda.

Belarusdagi tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish doirasida Gomel davlat tibbiyot universiteti rahbariyati Toshkent tibbiyot akademiyasiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida tomonlar 2024-yil sentabr oyidan boshlanadigan Davolash ishi yo'nalishi bo'yicha qo'shma ikki diplomli dasturni amalga oshirish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Ushbu dastur doirasida talabalar ikkita universitetda uch yildan tahsil oladi va o'qishni tugatgandan so'ng ikkita diplom oladi.

Qo'shma dasturni yo'nga qo'yish bilan birga, ilmiy loyihalarni doimiy amalga oshirish, IT-texnologiyalar sohasida hamkorlik qilish va talabalar almashinushi dasturlarini keng joriy etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining birinchi guruhi shu oyda Gomel davlat tibbiyot universitetida amaliyat o'tash uchun boradi.



*Navro'z –  
YASHARISH VA  
YANGILANISH  
FASLI*

Ko'plab tarixchi va qadimshunos olimlar Navro'z bayramini Islom dini bilan bog'lashga harakat qilishadi. Bu borada albatta bir qator tahlillar va tadqiqotlar o'tkazilgan.

Kun hamalg'a kirdi ersa keldi olam Navro'zi,

Ketdi qalbdan zamharir qish, qolmadni qori buzi.

degan edi ulug' valiyuloh, "Qisas ul-anbiyo"ning muallifi shayx Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Islom dini tarixidan eng mukammal ma'lumotlar bergan asli xorazmlik bu buyuk bobokalonimiz Yangi kun – Navro'zni islomdan avval ham bu yurtlarda eng go'zal, eng haffif bayram, shodmonlik sifatida nishonlanishini keltirib o'tgan.

Shuningdek, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblar ham o'zlarining qimmatli manbalarida Navro'zi olam haqida noyob fikrlarni keltirgan. Darhaqiqat jannatmakon diyorimizda bahor sharpasi kezib yuribdi, go'dakdek mas'um, onadek mehribon, otadek saxovatlari, singildek munisa...

Ko'klamning ifori kelib tog'u tosh, bog'u rog', hattoki buyuk bobo-momolarimizni bag'riga olib, allalab yotgan ko'hna qabrlar ustida ham giyohlar omonatgina tebranib turibdi. Yangi kun – Navro'zning ilohiy qadamlarini his etib, hovlimda bulbullar sayramoqda. Bu mitti va ilohiy zamondoshlarimga qarab tunlari ko'zlarimdan uyqu qochib, hayratlanib o'tiraman, ko'pchilik odamlar yetolmagan shunday qutlug' kunlar ostonasiga yetkazgani uchun betinim shukronalar qilaman. Esnab, ko'zlarini ishqalab mitti chumolilar ham hovlim sahnida rizq-ro'zini izlab yuribdi. Har yili uyimdagи 16 ta qaldirg'och uyasini to'ldirib, sariq og'izchalarini betinim ochadigan jimit poloponlarni eslab yuragim hapriqib ketayapti.

Buyuk bobokalonlarimizning

ibn Sino bu davrni bahorgi o'tish davrining qoq o'rta deb hisoblagan va odamlarga ko'proq quyoshda bo'lish, qon oldirish, ko'katlardan iste'mol qilish tavsiyasini bergen.

Ilmiy manbalarning teran tahlili Navro'zning bayram sifatida nishonlanishi olis moziylarga, davrimizdan 3000 yil muqaddamgi zamonalarga borib taqalishini ko'rsatadi. Hududi Kavkaz tog'laridan, Oymakonga, Enasoy daryosigacha borib taqalgan Ulkan Qipchoq dashtida ot surib yurgan hamda Zardushtiylik diniga sig'ingan bobokalonlarimiz bundan 3000 ming yil muqaddam ham bahorgi teng kunlik – Navro'zi olamni bayram qilishgan. O'sha yillari hech qanday murakkab asbob-uskunalar, usurloblarsiz bobokalonlarimiz 21-martdan 22-martga o'tar kechasi kun va tun tenglashishi va endi bahorgi rizq-ro'z uchun dehqonchilik qilish vaqtiga kelganligini tushunib yetgan.

Buyuk bobokalonlarimizning "Avesto" kitobida oila tuzish, mehnat qilish, sog'lom turmush tarzi kechirish bilan bir qatorda Yangi yilning boshi – Yangi kun haqida ham yetarlicha ma'lumotlar bo'lib, bularning aksariyati akademik Asqar Mahkamov, akademik, Turon Fanlar akademiyasi prezidenti Haydarbek Bobobekov, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Xalq artisti Hojiakbar Hamidovlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

**Alijon FAQIROV,**  
**Yevropa tabiiy fanlar**  
**Akademiyasi akademigi,**  
**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni**  
**saqlash a'llochisi,**  
**Qutbiddin NIZOMOV,**  
**Turon Fanlar akademiyasi**  
**akademigi, O'zbekiston**  
**Respublikasi Sog'liqni saqlash**  
**a'llochisi**




## AKADEMIYANING IKKI TALABASI ZULFIYA MUKOFOTI SOVRINDORI

**Tariximizga nazar solsak,** qanchadan-qancha buyuk ishlar boshida To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy kabi o'zbek ayollarining nafasi borligiga guvoh bo'lamiz. Ular o'z jasorati, aqildroki va mardligi bilan tarixga muhrlanganlar.

Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o'ziyoq bugungi kun xotin-qizlariga g'urur va sharaf tuyg'ularini his qilishga sabab bo'la oladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, orzu-tilishlarini qo'llab-quvvatlash, o'zining iqtidori va ibratli faoliyati bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan, turli soha va tarmoqlarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqaratotgan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda chuqr bilim va intellektual salohiyatini namoyon etib, o'z g'oya va tashabbuslarini ilgari surayotgan, ijtimoiy hayotda faoliik ko'ssatayotgan xotin-qizlarimiz talaygina.

Prezidentimizning 2024-yil 4-martdagi PQ-111-son qaroriga muvofiq yurtimizning iqtidorli, noyob iste'dodi, zukko, tashabbuskor, o'qishdag'i muvaffaqiyatlari hamda ta'lif, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan qizlari safida Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari Ahmadjonova Muhayyojon hamda Hakimova Shahzodaning borligi juda quvonarli voqeadir. Har ikki qizimiz chin ma'noda Bibixonim, Nodirabegim kabi o'zbekoyimlar davomchisi, Zulfiyaxonim izdoshlaridir.



**Hakimova Shahzoda Bahriiddin qizi** – 2006-yil 13-noyabrdra Toshkent shahrining Chilonzor tumanida tug'ilgan. Hozirda Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son davolash fakulteti 1-bosqich talabasi, fakultetning eng a'luchi, jamoat ishlarida faol ishtirokchisi. U mablag' yillaridanoq ustozlari e'tiboriga tushgan va Xalqaro olimpiadaga tayyorlov guruhiqa qabul qilingan.

2019-yildan boshlab kimyo fani bo'yicha o'tkazilgan maktab, shahar, tuman, Respublika, xalqaro olimpiadalar, shuningdek, 56-, 57-IMChO-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi g'olib bo'lgan va 2 ta bronza, 1 ta kumush, 1 ta oltin medalini qo'nga kiritgan. Shveysariyada o'tkazilgan Xalqaro olimpiadada sovrinli o'rinni egallab, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatori Respublikamiz bayrog'ini baland ko'tarish baxtiga muyassar bo'lgan.



**Ahmadjonova Muhayyojon Akramjon qizi** – 1999-yil 18-fevralda Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida tavallud topgan. Hozirda 2-son davolash fakulteti 6-kurs talabasi. U 6 yoshidan boshlab sportning stol tennisi turi bilan muntazam ravishda shug'ullanib keladi. Sportning ushbu turi bo'yicha 20 ta oltin, 10 ta kumush va 8 ta bronza medalini qo'nga kiritib, 3 marotaba O'zbekiston Kubogi sohibasi bo'lgan. O'zbekiston yoshlari milliy terma jamoasi tarkibida mamlakatimiz championatlarida va xalqaro arenalarda munosib ishtirok etgan. Respublika miqyosidagi, shuningdek "Universiada-2020", "Rektor kubogi" musobaqalarining mutlaq g'olib bo'lib,

akademiyada "Namunali sportchi" nominatsiyasi sohibasidir. Ilm-fan sohasida Muhayyo doimiy izlanishda. Tibbiyotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan 25 dan ortiq tezis va ilmiy maqolalari nafaqat O'zbekistonda balki chet el nashriyotlarida (AQSH, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Yevropa va mahalliy jurnallar) jumladan: "Texas journal of medical science", "Medical and natural science", "Eurasian medical research periodical", "Internauka", "Journal of innovations in scientific and educational research" jurnallarida chop etilgan. Ilm-fan yo'nalishida o'tkazilgan 20 dan ziyod olimpiadalar, nominatsiyalar va ko'rik-tanlovlari g'olib bo'lgan. Ustozlari bilan hamkorlikda tibbiyot muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan "Tibbiy biologiya va genetika" darsligi, "Ko'p faktorli etiologiyani hisobga olgan holda semirishda aholining ovqatlanishini gigiyenik baholash" mavzusida monografiya, "Bolalar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari" va "Sitologiya" o'quv qo'llanmalari shuningdek, "Kuylagim keladi yurt jamolini", "Ko'zimga kel" va "Zulfiyaxonim izdoshlari" she'riy va plamlari muallifidir.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari Muhayyojon va Shahzoda kelgisida tibbiyot sohasining rivojlanishiga, Yangi O'zbekistonimizni gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shadigan inson kapitali bo'lib shakllanishiga ishonamiz.

Kelajakda bundanda ulkan ilm cho'qqilarini zabit etishlari,

jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan yetuk shaxs, Vatanga munosib farzand, raqobatbardosh kadr, malakali shifokor bo'lib yetishishlariga tilakdoshmiz!

**Mashhura XASANOVA,  
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi  
boshlig'i**



Deontologiya saboqlari

## “XALQ TABOBATI AKADEMIYASI” BITIRUVCHILARINING TIBBIY QASAMYODI



Buxoriy, Samarcandiy, Termizi, Farg'oniy, Xorazmiy, Shoshiy, Marg'inoni, Nasafiy, Dorimiy kabi buyuk ajdodlarning, Abu Ali ibn Sino, hakim Yusufiy, Abulqosim az-Zahraiy kabi ulug' tabblarning beshigi bo'lgan muqaddas O'zbekiston diyorida tabib degan yuksak manoqibni egallab, o'z tibbiy faoliyatimga kirishar ekanman:

- o'zimni butun imkoniyatim, bilimim, ko'nikmam, saviyam, ma'naviyatim, ma'rifatim, iqtidorm va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson salomatligini saqlashga;

- yoshi, irqi, jinsi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va iqtisodiy mavqeidan qat'iy nazar har bir bemorga kuch-g'ayratim va vaqtim va mehrimni ayamay tibbiy yordam ko'rsatishga;

- bemorning salomatligini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'yishga, kamtarin, insonparvar, samimi va halol bo'lishga, o'z bilim, ko'nikmam va mahoratimni muntazam hamda izchil oshirib borishga;

- bemorning xastaliklari, norasoliklari, oilaviy ahvoli, fe'l-avtori va qusurlari, ruhiyatining o'ziga xosligi haqidagi sir-asrorlarini saqlashga;

- kishilarga hamisha mehr-muhabbat, muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;

- ajdodlardan meros bo'lib qolgan hamda ustozlardan o'rgangan o'z tibbiy bilimlarim va

mahoratimni muntazam oshirib borishga, o'z mehnatim bilan tibbiyot fani va amaliyotini muntazam boyitishga, dunyoqarashimni izchil kengaytirishga, tibbiy ma'rifat va ma'naviyatimni izchil oshirib borishga;

- bemor manfaatlari talab qilgan paytida hamkasabalarimga, ustozlarimga, shogirdlarimga maslahat olish uchun murojaat qilishga, o'zim hech qachon hamkasabalarimga maslahat, ko'mak va yordam berishdan qochmaslikka;

- turli dardlarga mutbalo bo'lib ruhiyati salbiy tomonga o'zgargan o'jar va qo'pol va dag'al bemorlar bilan muloqot qilishda va yaxshi munosabatda bo'lishda sabr-bardoshli bo'lishga;

- har qanday sharoitda kuch-qadratim, imkoniyatim va tafakkurim yetgunicha o'z burchimni halol va pok bajarishga, menga shu ulug' san'atni o'rgatgan ustozlarni o'z ota-onamday ko'rishga va erishgan yutuqlarimni ustozlar va shogirdlar bilan baham ko'rishga;

- Vatan va jahon tabobati buyuk an'analarini saqlash va rivojlanirishga, hamma joyda insoniy va islomiy axloq prinsiplariga rioya qilishga, tabib degan yuksak nomni hamma vaqt ulug'lashga, muhtaram Prezidentimiz, xalq va davlat oldidagi mas'uliyatni hech qachon unutmaslikka;

- ulug' ajdodlardan meros qolgan qadriyatlardan muntazam foydalangan

holda tibbiy qadriyat va madaniyatimni tinimsiz oshirib, sog'lom turmush tarziga o'zim qat'iy rioya qilgan holda sog'lom turmush tarzini jamiyatda muntazam targ'ib va va tashviq qilishga;

- Tibbiy deontologiya va kasb etikasini chuqur o'rganib, xushmuomala, shirin tilli, ochiq chehrali bo'lishga;

- Deontologiya adabiyotlarida keltirilgan islomiy va insoniy sifatlarni o'zimda jamlab, pokiza va sabrli bo'lishga, riyokorlik, hasadgo'ylik, manfaatparaslik, sovuqqonlik, shafqatsizlik kabi illatlardan yiroq bo'lishga;

- Gippokrat, Galen, Abulqosim az-Zahraiy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino singari ulug' tabblarning, zamonaviy meditsina va xalq tabobatini uyg'unlashtirib faoliyat yuritgan Vosit Vohidov, O'ktam Oripov, Sulton Dolimov, Erkin Qosimov, Muhammadjon Hamroyev, Jumanazar Beknazarov, Amin Sulaymonov, Sayfi Shamsiyev kabi olimlarning an'analarini davom ettirishga tantanali ravishda qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning adog'iga qadar sodiq qolishga va'da beraman.

**Qasamyod matni  
Alijon ZOHIDIY,  
Mehri NURUZOVA  
tomonidan tayyorlandi**



# BAHOR SOG 'INCHI

*Kuz keldimi derazang chertib,  
Esga solib, eski dardlarni.  
Ko'ngil bog'ing etib betartib,  
To'kdi daraxt xazon barglarni.*

*Lekin aslo boshing egmagin,  
Uch oylik kuz o'tadi uch kun.  
Bu umrning fasllari ko'p,  
O'chirmagin qalbdagi uchqun.*

*Qish keldimi umringda endi,  
Sovuq kunlar – oxirgi sinov.  
Tabassumni niqob qil endi,  
G'amlaringni bilmasin birov.*

*Chidagin qahraton sovuqlariga,  
Umrining bahori keladi, kutgin.  
Beshavqat fasllar qynoqlariga,  
Bo'sh kelmagin, kurash va yutgin.*

*Qaragin, sen kutgan bahor ham keldi,  
Qalbing oynasidan muzlar chekingan.  
Bugun erkin hislar shamoldek yeldi,  
Axir necha yillar qalbda bekingan.*

*Endi ozod sening yuraging,  
Sevib-sevil, quvonib yasha!  
Yana kuzlar, qishlar kelganda,  
Bahorgacha qilma xarxasha!*

*Ziyodaxon YULDASHEVA,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-davolash  
fakulteti 301-guruh talabasi*



Hikmat

*Yangi yil, yangi kun, yangi olam,  
yangi orzular demakdir.*



Hikmat

# HAR KUNING NAVRO'Z BO'LSIN!

Bahor yangilanish, yasharish fasli. Yurtimizda har bir faslning o'zgacha tarovati bor ammo, bahorning xalqimiz hayoti, ong-u shuuridagi, urf-odat va qadriyatidagi, bayramlar-u an'analaridagi bir gultoj sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'r kam ko'klamning huzurbaxsh nafasi ko'ngillarga ko'tarinkayfiyat bag'ishlaydi. Butun borliq uyg'onadi. Bog'rog'lar gullarga ko'miladi. Qushlarning sayrashi qalblarga quvonch ulashadi. Tuproq hidini sog'ingan bobodehqon ketmonini olib, dasasiga oshiqadi. Kim ko'chat qadagan, kim yer chopgan, kim daraxt butagan. Boshqasi ariq qazigan. Barcha-barcha tiriklik tashvishlari bilan band.

Sheriy misralarda ham bahor tarovati o'zgacha tasvirlanadi:

*Yana bahor keldi, yana olamda,  
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot,  
Men seni qutlayman shu ulug' damda,  
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!*

Bahorning eng ko'r kam bayrami bu Navro'z hisoblanadi. Navro'z yangilanish, tabiatning uyg'onishi, tarixiy qadriyatlarimizning yuksak ma'naviy ustunlaridan biri hisoblanadi.

Mana Toshkent tibbiyot akademiyasida ham bahor fasli kirib kelishi bilan turli tadbirlar boshlanib ketdi. Xususan, 1-mart shoira Zulfiya tavvalludi munosabati bilan bizning oliyohoh talabalari "Adiblar xiyobonida" katta tadbir tashkil qilindi. Akademiyamizning faxrli qizlari o'zimizda ta'sis etilgan "Zulfiya stipendiyasi" hamda "Zulfiya" ko'krak nishoniga ega bo'lishdi. Shuningdek, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Akademiya ayol professor-o'qituvchilar va talaba-qizlariga O'zbek Milliy akademik drama teatrinda katta konsert hamda spektakl namoyishi bo'lib o'tdi. Shuningdek, talabalar turar joyida hamda fakultetlarda 1 oy davomida "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan sumalak sayllari hamda turli konsert dasturlari bo'lib o'tmoqda.

Talabalarning sumalak doshqozonlari oldida qadriyatlarni anglashi, katta insonlardan duo olib, ezgu tilaklarga hamroh bo'lishi albatta ularning ma'naviyatiga ijobjiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Bundan tashqari, talabalarning bayram tadbirlarida madaniy hordiq olishlari uchun konsert dasturlari ularning xotiralarida doim saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Bu Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlarning yorqin namunasidir.

Yangilash, yashirish bayrami bo'lmish Navro'z bayrami bilan Akademianing barcha xodimlari, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlariga muborak bo'lsin!

**S.RO'ZMETOV,**  
**Toshkent tibbiyot akademiyasi**  
**Talabalar turar joyi direksiysi direktori**



## YOSHLAR ITTIFOQI FAOLIYATIDAN...

Kuni kecha Rossiya Federatsiyasining Sirius federal hududida "Butunjahon yoshlar festivali" bo'lib o'tdi.

Festivalda biznes, OAV, xalqaro hamkorlik, madaniyat, fan, ta'lif, volontyorlik va xayriya, sport, tibbiyot, jamiyat hayotining turli jahbalarini kabi yo'naliishlar bo'yicha 190 mamlakatdan 20 ming nafar yosh ishtirok etdi.

Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi faol talabalari – 1-Davolash fakultetining 4-bosqich talabasi Jasurbek Kamilov, 1-Davolash fakultetining 5-bosqich talabasi Intizor Abduraimova, 2-Davolash fakultetining 2-bosqich talabasi Abdulazizbek O'lmasbekov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakultetining 5-bosqich talabasi Feruzbek Xasanovlar ham festivalda faol ishtirok etishdi. Quvonarlisi bizning talabalar Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinnasari Dilnozaxon Kattaxanova tomonidan alohida e'tirof etildi.

Shu bilan birga Toshkent tibbiyot akademiyasi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar daftari va metsenatlilik dasturlari koordinatori Jasurbek Kamilov ham festivalda faol ishtirok etdi. K.Jasurbek festival doirasida Qatar Respublikasi Qizil Yarim Oy tashkiloti tomonidan "Volunteers Division" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Festival doirasida ishtirokchilar 50 dan ortiq turli dasturlarda ishtirok etib, o'z bilim va salohiyatlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, turli davlat, millat va elatlar o'rtaсидagi mustahkam do'stlilik aloqalarining yanada rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

**TTA Yoshlar ittifoqi Matbuot xizmati**

## EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH – ENG MUHIM MASALA



So'nggi paytlarda ekologik muammolar haqida juda ko'p gapirilyapti, ularni hal etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu borada eng muhim masalalardan biri esa insonlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishdir. Ekomadaniyati yuqori jamiyat atrof-muhitni o'z holicha saqlashni, ekologiyaga zara yetkazmaslikni o'ziga odat qilib oladi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan yoshlarning siyosiy ongini boyitish, ekologik madaniyatini yuksaltirish maqsadida ta'lif muassasalarida turkum tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Ayni shu maqsadda Toshkent tibbiyot akademiyasida "Yoshlar, ekologiya va qonunchilik" mavzusida davra suhbat tashkil qilindi.

Unda akademiyaning Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektori, T.Bobomurodov so'zga chiqib, zamonaviy ekologiyaning tibbiyotga oid tomonlari haqida ma'lumot berdi.

Partiya Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi vakillari mamlakatimizdagи ekologik holat, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv taqchilligi, cho'llanish va uning oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar haqida atroficha tushuntirishlar berdi.

Tadbirda ekologik barqarorlikka erishish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, aholi orasida ekologik madaniyatni targ'ib qilishda yoshlarning o'rni beqiyos ekanligi va bu yo'lda barcha yoshlar birlashishi kerakligi alohida qayd etildi.

O'z navbatida, yoshlarning ham fikr-mulohazalari tinglandi.

**M.KOMILOVA,  
O'zA**

## O'QUV JARAYONLARI

**Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrasida Talabalar ilmiy jamiyatasi (TIJ) kafedra bosqichi o'tkazildi.**

Tadbirni kafedra mudiri, professor Feruza Azizova ochib berdi. Ta'kidlash joiz ilmiy mavzular taqdimotlari dolzarbli, qiziqarliligi va talablarga mosligi muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu safargi ilmiy ishlarning saviyasining yuqoriligi, o'ziga xosligi barchani diqqat e'tiborini tortdi. Bo'lajak yosh kadrlarimizning bu sohaga qanchalik qiziqishlarini ularning ko'zlaridagi shijoatdan anglash mumkin.

Talabalarga kelgusida ilmiy hayot yo'llarida omad va zafarlar tilab qolamiz!





Barhayot siymolar

# KOMIL INSON SIYRATI

**Ma'nnaviyati yuksak ziyolining  
qalbi misli oftob, odamlarga  
ulashgani bilan ziyosi kamaymaydi.**

Mamlakatimiz revmatologiya ilmiy maktabi asoschisi, tibbiyat fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi To'xtasin Soliyev ana shunday insonlardan biri edi. Agar hayot bo'lganida bu yil 90-bahorini kutib olardi.

To'xtasin Soliyev ko'plab yoshlarning kamol topib, yetuk mutaxassis bo'lishida hissa qo'shdi. Uning o'zbek va rus tillarida yozilgan "Revmatoidli artrit" va "Reaktiv artrit" monografiyalari o'zbek tibbiyoti taraqqiyoti tarixida muhim voqeа bo'ldi. Xorijiy mamlakatlarda chop etildi. "Homilador ayollarda revmatologik kasalliklarning kechishi" va "O'zbekistonda podagra" monografiyalari darslik sifatida tibbiyot olyi o'quv yurtlarimiz dasturiga kiritilgan.

Aytish joizki, revmatologik kasalliklar butun dunyoda aniq tashxis qo'yish murakkab bo'lgan xastaliklar sirasiga kiradi. Ayniqsa, bizning yuqori issiq iqlim sharoitimizda uning organizmga ta'sirini o'rganish muhim. O'tgan asrning 90-yillarigacha asosiy vaqtı kasal ko'rish, davolash, talabalarni o'qitish, ilmiy tadqiqotlar yaratish barobarida jamoat ishlariga sarflangan bo'lsa, istiqlol professor faoliyatida butunlay yangi sahifa ochdi. Uning bevosita tashabbusi bilan Ixtisoslashgan ambulator davolash kursi tashkil etildi. IADKnинг ilmiy-tashkiliy strukturasini tuzish, boshqarish, hammasi o'zining rahbarligida amalga oshirildi.

Bu markazning afzalli shunda

ediki, bemor bu yerda yotib emas, balki uyidan kelib-ketib davolanishi mumkin. Bu usul bilan ham davlatning, ham bemorning mablag'i tejalardi. Keyinchalik bundan andoza olinib, boshqa yo'nalishlarda ham aynan shunday markazlar tashkil qilina boshladi. Bu yo'nalish o'zbek tibbiyoti tarixida bugun ham, ertaga ham domlaning nomi bilan birga tilga olinadi. Olim ana shunday murakkab vazifani sharaf bilan uddalab, yosh avlodga namuna ko'rsatdi.

Farg'ona viloyati Rishton tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan To'xtasin Soliyev o'rta maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent davlat meditsina instituti (hozirgi Toshkent Tibbiyot akademiyasi)da o'qidi. Mehnat faoliyatini Rishtonda uchastka shifokorligidan boshlab, tuman markaziy kasalxonasining bosh shifokori lavozimiga ko'tarildi. 1970-yilda sobiq ittifoq Tibbiyot fanlari akademiyasi qoshidagi Revmatologiya ilmiy-tekshirish institutida tibbiyot fanlari doktori, professor, Rossiyada xizmat ko'rsatgan fan arbobi Margarita Astapenko rahbarligida "Toshkentda revmatoidli artritning tarqalishi va kechish xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Farg'onada o'tgan o'n yillik tajriba o'zining samarasini berdi – dissertatsiyada ko'tarilgan dolzarb mavzu, uning ham ilmiy, ham amaliy asoslanganligi o'zbek tibbiyotida yangi yo'nalishning tamal toshini qo'ysi.

Doktorlik dissertatsiyasi jahonda ko'p tarqalgan, lekin kam o'rganilgan podagra xastaligiga bag'ishlangani ko'pchilik mutaxassislar e'tiborini tortdi. Xalq orasida "boy kasal" deb nom olgan podagraning klinikasi

va kechishini respublikada birinchi bo'lib o'rganib chiqdi hamda bu izlanishlar "O'zbekistonda podagra" monografiyasi yaratilishiga asos bo'ldi. O'iladagi sog'lom ma'naviy muhit ta'sirida nafaqat farzandlari, balki kelinlar, nabiralar ham u kishining yo'lini tanladi.

Aytish joizki, joriy yilning 15-16-mart kunlari Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi hamkorligida professor To'xtasin Soliyev tavalludining 90-yilligiga bag'ishlab "Zamonaviy revmatologiyada fanlararo muammolar" mavzusida Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Fransiya davlatlaridan kelgan olimlar ishtirokida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Unda jahon revmatologiya ilmiga o'zbek olimlarining qo'shayotgan hissalarini, dolzarb muammolarning zamonaviy yechimlari o'rganildi.

Shuningdek, xorijlik revmatolog olimlarning mahorat darslari uyuştilriladi, "Professor To'xtasin Soliyev. Fidoyilik falsafasi" kitobining taqdimoti o'tkazildi. Revmatologik kasalliklarni davolashda zamonaviy yondashuvlar masalalari bo'yicha yosh tadqiqotchilarining ma'ruzalari tinglandi.

Ustozlarning ustozasi, hammaga birdek hakim bo'lgan T.Soliyevning tibbiyot ilmida qoldirgan o'chmas merosi shogirdlari, yaqinlari yodida mangu qoladi.

**Hulkar HAMROYEVA,  
filologiya fanlari doktori,  
dotsent,  
Hamza HAMROYEV,  
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent**



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI (2024-yil mart)

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	2-son ichki kasalliklari va endokrinologiya	assistant – 1,0
2.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistant – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
3.	1-son fakultet va gospital xirurgiya	assistant – 1,0
4.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	assistant – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
5.	Yuz jag' jarrohligi va stomatologiya	assistant – 1,0
6.	Pedagogika, psixologiya va tillar	katta o'qituvchi – 1.0
7.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasи	katta o'qituvchi – 1.0
8.	Ftiziatriya va pulmonologiya	katta o'qituvchi – 1.0
9.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari	katta o'qituvchi – 1.0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
10.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistant – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti</b>		
11.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistant – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi Umumiylari va bolalar xirurgiyasi kafedrasи dotsenti Faqirov Aljon Zohidiyga opasi  
**Sabohatxon ZOHID qizining**  
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun mas'ul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi